



M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310



# **MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI**

*Elektron nashr. 168 sahifa, 26-dekabr, 2023-yil.*

## **TAHRIR HAY'ATI:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

**Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ**

**Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**



# MUNDARIJA

Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari) .....	5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.....	9
Xudojberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов .....	13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanshida	
qо'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati.....	16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati.....	19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi	
Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях.....	23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна	
Bo'lajak tarbiyachilarlari tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni.....	27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruв kompetensiyalarini rivojlantirish.....	33
Sharofiddinova Madinabonu	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish .....	36
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi	
Modern and High-Quality Methods in Schools.....	40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna	
Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ...	44
Дурдона Туракулова	
Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей .....	48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна	
Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish.....	52
Sotiboliyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi	
Jadidchilik harakatining vujudga kelishi .....	55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar.....	59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.....	62
Adizova Gulzoda Mehriddinovna, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi	
The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth .....	65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich	
Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarida ikki tomonlama yondashuv .....	67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna	
Hayot sifatini oshirish – davr talabi .....	70
Abdullahayeva Ranajon Matyoqubovna	
Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish .....	73
Rizayeva Gulnora Botirovna	
O специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении .....	80
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati .....	84
Jorayeva Sohibiamol Norgobilovna	

O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari.....	87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	
Экспериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе "Руководитель - Подчиненный" .....	90
Назирова Лола Васижановна	
Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari .....	94
Raxmonova Nigina Aminjonovna	
Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich .....	97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash .....	100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna	
Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi .....	105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.	
Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari .....	110
Kudratova Lola Ravshanovna	
Копинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде .....	113
Аскарова Гулрух Оринбосаровна	
Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish .....	117
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Amirova Munisa Yusuf qizi	
Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова "Отверзи мне двери" и Улугбека Хамдама "Бунт и смирение" .....	122
Чернова Татьяна Алексеевна	
Role of Innovation in Economic Development .....	125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni .....	128
Xasanova Nilufar Botirboyevna	
Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompentensiyalarini rivojlantirish .....	133
Artikbayeva Aziza Abrorovna	
O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari .....	136
To'laganova Ziyoda	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrleshga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish .....	141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna	
Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak .....	144
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Mehrjon bayrami.....	148
Uralova Momogul Karimberdinovna	
Bo'lajak tarbiyachilarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash.....	151
Sadikova Shoista Akbarovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning bilingual rivojlanish .....	154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в доо.....	157
Эргашева Камола Алишеровна	
Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children .....	161
Gaukhara Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar	



# MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KITOB VA KITOBXONLIKNING O'RNI

Xasanova Nilufar Botirboyevna

Navoiy viloyati Karmana tumani 8-“Paxtaoy” DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lrim yoshidagi bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, har bir ta'lim va tarbiyada kitobning vazifalari muhokama qilinib, mazkur vazifani hal qilishda pedagog tarbiyachining o'rni qanchalik muhim ekanligi, yosh ota-onalarga bolalarini kitobga va kitob mutoalasiga qiziqtirish bo'yicha qator taklif va tajribalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, psixologiya, metodlar, yosh davrlari, kitobxonlik.

**Abstract:** In this article, we discuss how to increase the interest of preschool children in books, the tasks of books in every education and upbringing, how important the role of the pedagogue is in solving this task, and how important it is for young parents to interest their children in books and book reading. A number of proposals and experiences are covered.

**Key words:** preschool age, psychology, methods, age periods, reading.

**Аннотация:** В этой статье мы обсуждаем, как повысить интерес дошкольников к книге, задачи книги в каждом образовании и воспитании, насколько важна роль педагога в решении этой задачи и насколько важно молодым родителям заинтересовать их дети в книгах и чтении книг. Охвачен ряд предложений и опыта.

**Ключевые слова:** дошкольный возраст, психология, методика, возрастные периоды, чтение.

Dunyoda biror kishi yo'qki, uning ustozi bo'lmasa. U hukumat odamimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul hunarmand ustami qo'yinki, barcha-barchaning o'z ustozi, hayot yo'lini charog'on etuvchi yo'lboshchi shamchirog'i bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim sohasida ham o'z faoliyati bilan kelajagimiz bo'lgan aziz farzandlarimiz, yosh avlod vakillariga ta'lim va tarbiya berib, o'z ilm bo'log'idan kichik, nimjon bir niholni ona Vataniga mehrli, fidoyi qilib ildiz ottirayotgan tarbiyachilar ham shundayin yuksak e'tirofga loyiqdir.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli, shu bilan birga, o'ta ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolani zamon talablariga munosib etib tarbiyalasa, unung ilmliligi, yangiliklarga, ijodga tashnaligi jamiyatga munosib kadrlarni yetishtirishga, kelajakda xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga, har bir masalaga ilmiy-ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va o'sishiga ko'maklashadi.

Hozirgi zamon tarbiyachisi ijtimoiy-kasbiy vazifalarni bajarishi uchun yuksak ma'naviy hislatlarga ega bo'lishi, umumiy kasb madaniyati, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyortlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog'lom, davlatimiz fuqorosi sifatida his eta bilishi lozimdir.

Tarbiyachilik kasbiiga xos psixik holatlар va xarakter maktabgacha yoshidagi bolalar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini, tarbiyachining psixik asoslari va qonuniyatlarini haqida bilim, ko'nikma va malakalar berishdan, ularni kasbiy faoliyatiga tatbiq etishdan e'boratdir.

Bu masalalarni yechishda, albatta, bizga beminnat ko'makchi, bir umrlik do'stimiz, maslahatgo'yimiz, barcha savollarimizga javob beruvchi ustozimiz bu-kitob ekanligini bir daqiqaga bo'lsin, unutishga haqimiz yo'q. Va bu isbotlangan fikrni yosh avlod qalbiga singdirishimiz bizning eng katta yutuqlarimizdan biridir.

Avvalo bolaga tarbiya berishlik lozim zeroki, tarbiyasiz bolaga ta'lim berish bir muncha mashaqqatli va samarasizdir. Qadimdan ota-bobolarimiz ta'lim va tarbiya ishlarini teng olib borishgani barchamizga ayon. Tarbiya xususida buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino: "Bolani onasi emas, balki, tarbiyachi tarbiyalamog'i lozim. Chunki, onalar bolasidagi qusur va kamchiliklarni ilg'amaydilar yoki juda kech ko'radilar", degan fikrni aytgan bo'lsalar, buyuk mutafakkir shoir bobomiz mir Alisher Navoiy: "Tarbiya-insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlarni hosil qilishga yordam beradi", deya ta'kidlagan ekanlar.

"Farzand tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina uning noo'rin xatti-harakatlarga berili-shining oldi olinadi", deydi Yusuf Xos Xojib.

"Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", deydi Abdulla Avloniy.

Nemis pedagogi Adolf Desterveg ta'limni-tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: "Ta'lrim prinsplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsplari ham bo'ladi yoki aksincha".

Albatta, ilk tarbiyani bola o'z oilasidan olar ekan, bolaga yaxshi tarbiya berish ota-onaning oldida turgan asosiy maqsad va vazifadir. Oila-muqaddas dargoh hisoblanib, bu yerda davlatimizning bebafo boyliklari, mil-latimiz davomchilar-bolajonlar kamol topishadi. Bobomeros qadriyatlarimiz ular bilan birga o'sadi, betakror tilimiz ular bilan ravnaq topadi, ajdoddan avlodga o'tadi. O'sib kelayotgan bola asosiy tarbiyani oiladan, oila a'zolaridan "yuqtirib" olaveradi. Bolalarga tarbiya berishda ularga o'rnak bo'lish kifoyadir. Bolajon hali nima yaxshi-yu, nima yomonligini ongli ravshda tushunmagani uchun, kattalarda ko'rgan odatlarni ko'rib o'zlashtira boshlaydi. Yurish-turish, o'zini tutish, gapirish ohanglarini oila-a'zolaridan taqlidan bajarishadi. Zero, bolalar ko'rib, taqlid qilib o'rganishadi.

Rizouddin ibn Faxruddinning "Oila" risolasida "Bola tarbiyasi yomon niyat va qo'pollik bilan emas, balki sabr-toqat va matonat, mehriconlik va chidamlilik, shavqatu sezgirlik bilan bo'lishi kerak. Bundan esa bolani tizginsiz hayvon kabi o'z holiga qo'yish lozim, degan gap kelib chiqmaydi. Zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go'dakni nazoratsiz tutish ulug' xatolikdir. Balki uni yumshoqlik bilan qattiqlik o'tasida, adolat bilan tarbiya qilmoq kerak"ligi haqida qimmatli fikrlari keltirilgan.

Shunday ekan, oilada kattalarning kitobga mehrini, munosabatini, mutolaasini ko'rib o'sgan bola, kelajakda albatta, kitobxon bo'lib ulg'ayadi. Aksincha, kitobga mehri yo'q, internetdan bo'shamaydigan ota-onalardan bolalari nimani o'rnak qilib olishi hammamizga ma'lum.

Xozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan texnikalar asrida kitoblarga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj birmuncha kamaygandek menim nazаримда. Aksariyat ota-onsa bolalarni kiyintirish, qornini tuydirish va kerakli jihozlar bilan ta'minlashni o'zi uning kelajakda o'z o'rnnini topishiga muhim rol o'ynaydi degan tushunchaga ega. Bular ham kerak, albatta. Ammo eng muhimi bolaga yetarlicha etibor va tarbiya berishdir.

Tarbiya o'z o'rnda;

- aqliy tarbiya;
- axloqiy tarbiya;
- jismoniy tarbiya;
- estetik tarbiya;
- mehnat tarbiyasi;
- ekologik tarbiya;
- huquqiy tarbiya;
- iqtisodiy tarbiya;
- sensor tarbiya ko'rinishida bolaga berib borilishi lozim.

Bu tarbiya turlarini bolajonlar ota-onalari, bobo-buvilari tomonidan aytib berilgan ertak, hikoya, she'r va topishmoqlar orqali va, albatta, bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlangan kitoblarni birga o'qish, tomosha qilish, ta'limiyl o'yinlarni birga o'ynash, jismoniy harakatlarni ya'ni, badantarbiya mashqlarini bajarish, uyni, bolalar xonasini birgalashib bezatish, kattalarga hurmatda bo'lishga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilish ya'ni, o'ynagan o'yinchoqlarini yig'ish, tabiatga ehtiyyotkorona, mehrli munosabatda bo'lishga o'rgatib borish, narsalarini ehtiyyotlashga o'rgatish, opa-akalari bilan yaxshi munosabatni shakllantirish bilan berib boriladi.

Yosh ota-onalarga farzandlariga ta'limg-tarbiya berishda bolaning faqat o'zigagina xos bo'lgan psixologik jihatlarini inobatga olishlarini tavsiya etaman.

- Har bir shaxsda psixologik jarayonlar rivojlanib boradi:
- sezgi, iroda, xotira, tafakkur, nutq, hayol, diqqat.
- Har bir shaxsda hissiy-irodaviy holatlar mavjud:
- his-tuyg'ular(emotsional ton, affekt kayfiyat, stress, ehtiros).
- iroda(qat'iylik, dadillik, mustaqillik, uyushqoqlik, intizomlilik, sabr-bardosh).
- Har bir shaxs o'zining individual-psixologik xususiyatlariga ega:
- qobiliyatlar, temperament, xarakter.

Aynan mana shu psixologik jihatlarni inobatga olib, ta'limg-tarbiya berish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bolaning tarbiyasi uyidan boshlanar ekan, so'kinib, qo'pol gapiradigan ota, bolasining shirinso'z bo'lib voyaga yetishishiga erisha olarmidi? Uyida tozalikka e'tiborsiz, pala-partish kiyungan ona, bolasida estetik tarbiyani shakllantira olarmidi? Dangasa yoki, farzandini avaylab uning qo'lini qimirlatmaydigan oilada mehnat tarbiyasi rivojlanadimi? Farzandi ko'z o'ngida ariqqa axlat supurgan, xazon yoqqan oila bolasiga ekologiyani asrash to'g'risida v'az o'qishi nechog'li foyda beradi? Xuddi shunday, o'zi kitobni qo'liga olmaydigan ota-onsa farzandini kitobga mehrini uyg'ota olmaydi.



Bolaga o'z oilasida qanchalik ko'p e'tibor berilsa, uning ko'cha-ko'ydan yomon odatlar ta'siriga tushishi shuncha oson bo'lmaydi. Hali o'qish va yozishni bilmaydigan kichik yoshdagi bu bolajonlar dunyo sir-asrorlaridan bexabar bo'ladi. Shunga qaramay, ular o'zlarini qurshab turgan olamni tezroq bilib olishga, uni o'rganishga intiladilar. Chunki, biz uchun oddiy narsalar ular uchun go'yoki "mo'zija". Bu borada ota-onalar va tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari, ularni qiziqtirgan savollarga birlashib javob topishlari, birga kitob tanlab, o'qib berishi va tahlil qilishga o'rgatib borishi zarur.

"Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bejiz aytilmagan. Oilada kattalar kitobga oshno bo'lsa, tez-tez kitob mutoala qilsalar, bu oilada o'sayotgan farzand ham kitobga mehr qo'yadi. Bunday bolaning dunyoqarashi keng, so'z boyligi ko'p, nutqi ravon bo'ladi. O'zining erkin fikriga ega bo'lib o'sadi. Bolalarga go'daklikdan alla aytish bilan xalq og'zaki ijodining bebahoh qadriyatlarini go'dak qalbida, ong shuurida sehrli ohang, ona mehrinining samimiylif ifodasi orqali kurtak yozadi. Chaqaloq o'z vaqtida orom olishi, oziqlanishi kabi zaratlar qatorida xalq og'zaki ijodining nammunslardan alla, erkatalma, ovutmachiqlarga ham ko'nikma hosil qilib boradi. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida "Chaqaloq organizmi va xarakterini mustahkamlash uchun; birinchidan, uni yengilgina chayqatish va silash, ikkinchidan, unga musiqa eshittirish, ashula va alla aytish lozimligi ta'kidlangan. Bolada shu orqali jismoniy harakat, fikrlash va ijodiy intilishga moyillik paydo bo'ladi. Bola hayotidagi muvaffaqiyat onanining unga bo'lgan emotsiyonal munosabatiga bog'liq. Shu bois, allada faqat ezgu tilaklar, maqtov va erkashlar, fidoiylik tuyg'ulari mujassamlangan bo'lmosg'i lozim. Bu esa bolaning har tomonlama sog'lom inson bo'lib kamolga yetishiga xizmat qiladi" deganlar.

Bundan tashqari, bolaga o'zbek xalq ertaklaridan so'zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylilik, ezzulik kabi insoniy fazilatlarni kamol toptiradi, xech e'tibor berganmisiz, chet el kinolarida qahramonlar qanday vaziyat bo'lmasin, bolasi uyquga yotganida, albatta, ertak kitob o'qib berishadi. Bolalari kitoblarni o'zları tanlab berishadi. Har bir bolaning mo'jazgina kitob burchagi bor. Xush, endi o'zingizga savol beringchi, kim har kuni bolasiga u xohlagan ertak kitobni birga, erinmasdan o'qib beryapti? Kim oxirgi marta farzandi bilan kitobxonaga yoki kitoblar do'koniga borib kitob xarid qildi? Og'riqli savol, og'riqli javob, to'g'rimi? Mana nima uchun chet elda rivojlanish yuqorilab bormoqda, ular bolalarini bolalaikdan kitobga mehrini o'stirayapti, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirayapti. Bu masalada befarq bo'lish bizday ajzdodlari olimu, alloma o'tgan elga yarashmaydi. Iloji bo'richa, hech bo'lmaganda, bir oyda bir marta kitob do'konlariga farzandingiz bilan tashrif buyuring.

Bolalar uchun kitoblar tanlashda albatta ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga oling. Ya'ni asarning xajmi qisqaligiga, mazmuni sodda va tushunarli bo'lishiga, yorqin va sehrli voqealar eshtirokiga va albatta kitobning rangli rasmlar bilan boyitilganligi-yu, harflarining yirik-yirik bo'lishi qiziquvchan bolalarning e'tiborini jalb qilmay qo'ymaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ularni o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndirmasdan maktabga chiqqunlaricha kitob o'qishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Bu borada tarbiyachi va ota-onalar bilan yuqorida fikrlarimga qo'shimcha tarzda bir qancha sinalgan tavsiyalarim bilan o'rtoqlashmoqchiman:

– Bolaga sovg'a olganingizda, albatta, uning qiziqishlari va yoshiga mos, o'zi orzu qilgan sifatlari kitob olishni ham kanda qilmang. Bu ishingiz keyinchalik farzandingizning kundalik, yaxshi odatlariga aylanib boradi.

– Kitobni birgalikda o'qing va muhokama qiling. Bola bilan birgalikda rasmlarini tomosha qiling. "Bu yerda nima chizilgan? Mushukning quloqlari nechta, qayerda joylashgan? Menga ko'rsatchi, u qanday ovoz chiqarar ekan? Mushukning rangi qanaqa, senga bu rang yoqadimi? Mushukning yonida nima bor? Qaysi kichik, qaysi katta?".

– Yoshi katta bolalarga esa qiyinroq savollar berish lozim;

– "Bu qahramon nega shunday qildiykin, sen nima deb o'ylaysan, to'g'ri ish qildimi? Voqealarning qanday davom etarkin? Seningcha nima qilsa, hammaga yaxshi bo'ladi?" kabi. Yoki, rasmlarga qarab, asarni qayta hikoya qilib berishini iltimos qiling.

– Doim osonidan qiyiniga qarab yuring. Tovushlardan boshlang. Kitobdagagi predmetlar rasmidagi birinchi yoki oxirgi tovushni topish "o'yini"ni o'ynang. Keyinchalik tovushni ifodalayotgan harfni topishni o'rgating. Sekinasta bo'g'inlarga o'tish mumkin. Takrorlanadigan bo'g'inlardan tuzilgan so'zlar masalan, "da-da, bo-bo, bi-bi" kabi birinchi so'zlar bo'lsin. Keyinchalik qiyinroq so'z birikmalariga o'tamiz.

– Harflar hamma joyda borligini ko'rsating. Bu ishni ham albatta o'yin tarzida olib boring. Bola hamma joyda, uyda, ko'chada, o'zini o'rab turgan tevarak-atrofdan harflarni topishni o'rgansin. Masalan, do'konlardagi yozuvlar, ko'chalarning nomi kabilarda bolalar o'rgangan harflarni topishga harakat qilsin. Harflarni oddiy yod oldirmang, ohangga solib, qo'shiq tarzida aytib o'rganish ham qiziqarli, ham maroqli. O'rganayotgan harflarni bosma shaklda yozish malakalarini ham birdan mustahkamlab boring. Hamma bolaning o'zlashtirib olishi uning psixik jarayonlarining rivojlanishiga bog'liq. Shunday ekan hamma bola bir xil vaqtida o'zlashtiroblasligi mumkin. Siz vaqtadan unumli foydalaning. Sayrga chiqqanda rangli bo'rlar bilan chiqib, o'rganayotgan, masalan rang-barang "A" harfini yozishni va qaysi rangda harf yozganligini aytishni taklif qiling. Ertalabki o'yin vaqtida yoki yakka tartibda ishlaganda sanoq cho'plardan o'rganayotgan harfini yasashni, rangli qumlar yordamida, katta idishlarga solib, barmoqchalari bilan harflarni yozib ko'rishni maslahat bering. Rasm chizish jarayonida o'rgangan harflarini "yashirish"ni keyin do'stlari bilan birga topishni taklif qiling. O'rganib olgan harflari yordamida so'zlar

hosil qilish o'ynini o'ynang. Hamma harflarni yod olishini kutib turmang, masalan, "A, O, N" harflaridan "ONA, ANA, ON" kabi so'zlari hosil bo'lishini o'rgating, yangi so'zlarni ma'nosini birdan o'zlashtirib borish foydadan holi bo'lmaydi. Yaxshi o'zlashtirib olgan bolalarni do'stlariga ko'mak berishga undang, ya'ni "bog'cha opa" rolida o'yin o'ynasin. Unutmang, bola kattalardan ko'ra, o'zi tengilardan ko'proq va tezroq o'rganishi mumkin.

– Yana o'ynang! Harfli va bo'g'lini kubiklardan so'zlar yasab o'ynashni taklif qiling. Tayyor bo'lgan so'zga qofiyadosh, yoki teskari ma'no beruvchi so'z topishni taklif qiling, o'zingiz namuna bo'ling. Katta harflar bilan yozilgan so'zlarni o'qib berishni iltimos qiling. Bolalarning fikrlarini eshiting, xohishiga ko'ra kitob tanlang. Bu mashg'ulotlar uchun har qanday imkoniyatdan foydalaning. Eng asosiysi majbur qilmang.

– Kitobni o'qiyotganingizda o'zingiz ham shu kitob "ichiga" kiring, ya'ni bola sizni qiziqib, o'qiyotganingizni sezsin, majburan emas. Har bir tovushni to'g'ri, to'liq ba aniq talaffuz qiling. Ovozingizni baland-pastligiga, doim bir xilda ming'illab chiqmayotganiga e'tibor bering. Chunki ma'lum bir vaqtida bir xil tonda gapirish bolani qiziqishini so'ndirishi, uni charchatishi yoki zeriktirishi mumkin.

– Albatta obrazga kiring va bundan uyalmang, aksincha zavqlanib bajaring. Mushukday miyovlab, bo'riday ovoz chiqarishdan tortinmang, kerak bo'lsa, ularning harakatlarini ham o'xshatib bering. Unutmang, siz kich-kintoylarg'a dunyoni tanitayapsiz, bilim beryapsiz. Keyingi kitob mutoalasida boladan hayvonlarni ovozlar va harakatlarini ko'rsatib berishni iltimos qiling. Siz o'rgatgandek ayiqvoyning lapanglab yurishi-yu, tulkivoyning ayyorona kulishlarini siz kutgandan-da ziyoda o'zlashtirishadi shunda bolalar.

– Judayam kuzatuvchan bo'ling. Bolalar qiziqib, ko'zi yonib tinglayaptimi? Qaysidir qahramonga achinib, mehr-shafqat belgisi yuzlarida namoyon bo'lyaptimi? Yoki, aksincha, kulguli voqealardan mazza qilib kulisshayaptimi? Unga ertak va hikoyadagi qaysi epizod yoqdi, nima uchun? Ertakdag'i qaysi holatni o'zgartirishni xohlashini so'rab biling. Shundagina bolaning xarakter-xususiyatlaridagi yashirin holatlaridan xabardor bo'la boshlaysiz.

– Bolalar uchun alohida kitob burchagi, rasmlarini ko'rib, o'qishi uchun tinch joy bo'lishiga e'tibor qarating. Bir eslab ko'ring, bolaligimizda kravotni tagida fonar bilan kitob o'qish qanchalik maroqli va sehrli edi. Shuni doimo yodda tutinki, bolangizga bilim olishida qilayotgan har bir harakatingiz, kelajakda albatta bolangizni katta yutuqlarga erishishiga, sizning yuzingizni yorug' qilishiga olib keladi. Va bularning zamirida azizlar, bolani kitob o'qishga mehrini oshirish yotadi. "Bolalikda olingen bilm-toshga o'yilgan naqsh kabidir", – deyilgan maqol bejizgamas. Agarda bolani bolalikdan kitob o'qishga, ilm olishga qiziqtirmas ekansiz, keyin kech. Abu Ali ibn Sino bobomizga bolani necha yoshidan boshlab tarbiya bermoq kerak degan savolga, juda erta, ona qornidaligidayoq deb aytgan gaplarini eslang va bunga amal qiling.

Bundan tashqari bolalarga kitob o'qib berish orqali ona tilini, urf-odat va qadriyatlarni o'rgatish mumkin. Maktabgacha yosh – bu ertaklar davridir. Ertaklar bolaning so'z boyligini oshiradi, bola tarbiyasida asosiy manbaalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariда kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi Davlat talablari asosida "Nutq-muloqot, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish" sohasida hamda "Ijodiy rivojlanish" sovg'alari bilan birligida olib boriladi. Ta'lim faoliyati jarayonlarida ertak, hikoya, she'r va topishmoqlarni tematik rejalashtirishga muvofiq ravishda, bolaning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ish yuritiladi.

Kichik guruhlarda (3-4 yosh) badiiy adabiyot nutqni rivojlantirish mashg'uloti bilan uzviy bog'liqdir. Vizual tasvirlar yordamida amalga oshiriladi. Tarbiyachi ertak, hikoya, she'rlar bilan tanishtirganda ko'rgazmalilik tamo-yillaridan foydalани, nutqni harakatlari bilan bog'lab olib borishi, keyinchalik boladan takrorlashni iltimos qilishi lozim. Ushbu bosqichda bolalarga qisqa asarlarni so'zlash, rasmlar bilan bog'lash va ko'p bora qayta takrorlash natija beradi.

O'rta yosh (4-5 yosh) guruhlarda bolalar bilan asarlarni yanada batafsil tahlil qilish, qahramonlarning o'ziga xos bo'lgan jihatlarini taqqoslash, yaxshi-yomon odatlarini baholash mumkin bo'ladi.

Katta yosh (5-6 yosh) guruhlarda bolalar ongli ravishda kitoblarga qiziqadilar; o'z qahramonlari, sevimli kitoblarini ajratishadi.

Tayyorlov (6-7 yosh) guruh bolalari endi o'zları harflarni tanigan, bo'g'inlab o'qiy olishi mumkin. Sevimli asarlari, qahramonlari haqida bemalol bahslashishi mumkin bo'ladi.

Kitob bilan dastlabki tanishish usuli asosan ikki xil bo'lib, ular:

- O'qish,
- Hikoya qilib berish.

O'qish-matnni ovoz chiqarib o'qish, og'zaki takrorlashni anglatadi. Audio ertaklarni tinglash ham aynan shu usulga misol bo'la oladi.

– Hikoya esa, hikoyachining ifodasi orqali turli bo'yoqlar bilan erkin so'zlashidir. Bu esa albatta, hikoya qiluvchining fantaziyasiga, ijodkorligiga, so'z boyligining yuqoriligi bog'liq.

– Shuningdek ta'lim-tarbiya jarayonida xususan kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda ham ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish eng muhim omillardan biridir. Ota-onalar bilan hamkorlik qilishda quyidagi loyihalarni tavsiya qilaman;



– Tashkilot guruhlarida kitob burchaklarini tashkil etish va kitoblar bilan boyitishda tarbiyachiga ko'maklashishni taklif qilish.

– Ota-onalarga maslahatlar, "Bola qanday kitob o'qishi kerak?", "Ertak terapiyasi", "Balalarni erta yoshdan kitobga qiziqishini oshirish" kabi maslahatlar bilan fikrashish.

– Har oyda bir marta "Ertakchi bolajon", "Kimning oilasi she'rni ko'p aytdi?", "Rasmlardan foydalanib ertak yoki hikoya tuzing", "Kitobxon oila" kabi tanlovlар e'lon qilish va o'tkazish.

Bu loyihalarning maqsadi, ota-onalarga kitob o'qishda oila muhitining o'rni, oilaviy o'qishning qanchalar muhim ekanligini tushuntirib borish.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitobning o'rni beqiyosdir va albatta kitobga bo'lgan qiziqishni oiladan boshlasak, ularni bolalikdan kitobga oshno qilsakkina, kela-jakimiz barkamol va ma'nnaviyatl shaxslarning qo'liga o'tadi. Hech bir onaning, hech bir pedagogning unutishga haqqi yo'q bir jumla bor;"Balalarning begonasi bo'lmaydi. Ular Ollohnning yerdagi niholchalaridir. Ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berib "parvarishlasak", kelajakda mazali "mevalaridan" bahramand bo'lamiz.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha yoshdagи bolalar psixologiyasi. "Faylasuflar" nashriyoti—2017.
2. Xudoyberdiyeva. G. "Keksalarning yosh onalarga maslahatlari, chaqaloq, tarbiya".
3. Imomov. O. "Oilada bolalarni ma'nnaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari" pedagogika fan. dok. diss. –Toshkent, 1998-316-b.
4. Alimardanova. M. M. "21-asrda bolalar kitobxonligi. Muammo va vazifalari". Новости образования, исследование в 21 веке, –2023.
5. T. M. Mallaboyevna. "Maktabgacha yoshidagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirish usullari". –2018.
6. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga qo'yilgan "Davlat talablari" va "Ilk qadam"o'quv dasturi.



**Muharrir:** Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 2-3**

---

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**